

## OGAHIYNING TARIXIY ASARLAR BO‘YICHA TARJIMONLIK MAHORATI<sup>1</sup>

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi*  
**Ubaydullayev Abbosxon**  
*Tel nomer: +998993454907*  
*Email: abbos.daniyarevich@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ogahiyning tarixiy asarlari tarjimasini va u yaratgan tarjimashunoslik maktabining vujudga kelishi va Munisning davomchisi sifatida ham adabiyotchi ham tarjimashunos, ham mirob sifatida shakllanishi haqida bo‘lib asosan urg‘u uning tarixiy asarlarni tarjima qilish mahoratiga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Ogahiyning tarixiy asarlardagi tarjima mahorati, “Zubdat ul-hikoyot”, “Nasihatnoma” yoki “Qobusnoma”, “Miftoq ut-tolibin”, Tarixi jahonkushoniy Nodiriy” yoki “Tarixi Nodiriy”.

Ogahiy tomonida yozilgan tarixiy asarlar haqida gapirilganda ilgari uning boshqa tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarixiy asarlari haqida to‘xtalib o‘tishmi joiz deb topdik, chunki Ogahiyning tarjimashunoslikdagi maktabi bugungi kunda barcha tarjimonlar uchun katta maktab vazifasini bajarib kelmoqda.

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, Ogahiy faqatgina adabiy asarlarni yozish va tarjima qilish bilan cheklanib qolmadi, balki original tarixiy asarlar yozdi va ko‘plab tarixiy asarlarni boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘girdi.

U Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyot” nomli asarini o‘zbek tiliga tarjima etgan. Muhammad Voris o‘zidan ilgari yashagan tarixchi olimlarning asarlarini o‘rganish asnosida<sup>2</sup> o‘zining bu nasihatnomaga o‘xshash asarni yozgan “Zubdat ul-hikoyot” deb nom bergan. Bu asarni Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan yangi nusxasi hozirda O‘R Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qolyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ogahiy, shuningdek, Kaykovus ibn Iskandar ibn Qobus ibn Vashimgirning o‘z o‘g‘li Gilonshoh uchun yozgan Sharqda mashhur “Nasihatnoma” yoki “Qobusnoma” ham deb ataluvchi asarini o‘zbek tiliga tarjima etgan. Bu asar 44 bobdan tashkil topgan bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlardan va hikoyalardan iborat<sup>3</sup>.

Ogahiy bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdan ilgari kichkinagina bir muqaddimada unga bu asarni tarjima etishning buyurilganligini va uni boshlaganligini haqida gapiradi. Bu asarning tarjimasidan yagona nusxasi hozirda O‘zR Fanlar

<sup>1</sup> Qarang: maqola Q.Murinov Xorazmda tarixnavislik “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashryoti” Toshkent–2002 asari asosida yozildi.

<sup>2</sup> Muhammad Voris. Zubdat ul-hikoyot. Ogahiy tarjimasini. Mazkur qo‘lyozma fondi. Inv. № 1273/I 2<sup>a-b</sup>–varaqa. Bu yerda muallif kimlarning asarlari asosida yozilganligi haqida batafsil gapiradi va ularning nomarini keltiradi. Bu asar bir muqaddimada va uch fasldan iborat. Yana qarang: Собрание восточных рукописей АН УЗбекистана. Т. I. Тошкент.С.44.

<sup>3</sup> Kaykovus. Nasihatnoma. Ogahiy tarjimasini. Inv. № 1274/11.

akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Ogahiy Mahmud ibn Shayx ibn Imomiddin G'ijdivoniyning "Miftox ut-tolibin" nomli asarini o'zbek tiliga tarjam etgan. Hozirda bu asarning tarjimasi bir nusxasi O'zR Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Sharq qo'lyozmlari fondida saqlanmoqda. Asarning oxirgi ko'rsatilishicha, Ogahiy bu asarning tarjimasini 44 kun davomida tamom etgan.

Ogahiy shuningdek, Husayn ibn Ali Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy" nomli asarini ham o'zbek tiliga tarjima etgan. Bu asar didaktik xarakterga ega bo'lgan hikoyalardan iborat. Asarning o'zbekcha tarjimasidan bir necha nusxa hozirda O'zR Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmlari fondida saqlanmoqda.<sup>4</sup>

Ogahiy Muhammad Mahdiy Astrabodiy ibn Muhammad Nosir tomonidan yozilgan "Tarixi jahonkushoniy Nodiriy" yoki "Tarixi Nodiriy" nomi bilan yuritiladigan asarni o'zbek tiliga tarjima etgan. Bu asar Nodirshohning (1148-1736) (1160-1747) hukumronlik qilgan davridagi tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi. Bu asarning o'zbekcha tarjimasidan ikki nusxa hozir Sharqshunoslik institutining qo'lyozmlari fondida mavjuddir.<sup>5</sup>

Bu asarning Ogahiy tomonida o'zbek tiliga tarjima etilganligi haqida qo'lyozmalarning o'zida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Lekin bu asarning Xorazmda tarjima etilishi va ko'chirilishi, shuningdek, Ogahiy devonining muqaddimasida<sup>6</sup>, u tomonidan tarjima etilgan asarlarning ro'yxatida "Tarixi Nodiriy" ning bo'lishi bu asarning Ogahiy tomonidan tarjima etilganligining dalili bo'la oladi.

Ogahiy, Muhammad ibn Xovandshohning taxallusi Mirxond(903-1498) tomonidan yozilgan ko'p jildli "Ravzat us-safo" asaridan bir necha jildini o'zbek tiliga tarjima etgan. Bu asarning I kitobini va II kitobining I yarimini Munis o'zbek tiliga tarjima etgan bo'lib, qolgan jildlarining tarjimasini Ogahiy davom ettiradi<sup>7</sup>.

Munis vafotidan so'ng uning boshlagan ishini davom ettirib, Ogahiy "Ravzat us-safo" II kitobining II yarimini tarjima etishni boshlagan va tamom etgan.

Hozirda undan bir necha nusxa O'zR Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmlari fondida saqlanmoqda. Haqiqatda ham bu ishning Ogahiy tarafidan bajarilganligi kitobning oxirida keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan aniq ko'rinadi.

"Bu kitobni o'quvchi kishilarga ma'lum bo'sinki, Shermuhammad Munis, Muhammad ibn Xovandshohning "Ravzat us-safo" asarining 1-kitobini o'zbek tiliga tarjima etib, ikkinchi daftarning yarimini tamolaganda 1244/1829 yili vafot etadi. Bu asarning 2-kitobi oxirgacha tarjima etilmay chala qoladi.

1850-yili, menkim, Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo mirob, laqabim Ogahiy bu chala qolgan "Ravzat us-safo"ni tarjima etishni boshladim va oxorga yetkazdim<sup>8</sup>.

<sup>4</sup> Husayniy b. Ali Koshifiy. Ogahiy tarjimasi. Inv.№ 8446. № 1587.

<sup>5</sup> Muhammad Mahdiy Astrobodiy. Tarixi jahonkushoniyi Nodirshoh. Ogahiy tarjimasi. Inv. № 6908, 1227/

<sup>6</sup> Devoni Ogahiy. Mazku qo'lyozma fondi . Inv. № 938.

<sup>7</sup> Mirxond. Ravat us-safo. Ogahiy tarjimasi. Inv. № 7307.

<sup>8</sup> Mirxond. Ravat us-safo. Ogahiy tarjimasi. Inv. №1812;. Собрание восточных рукописей. Т. I. оп. № 59. С.34.

“Ravzat us-safo” asarining Ogahiy tarafidan o‘zbek tiliga tarjima etilgan 3-kitobi ham mazkur insitutning qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bu asarning Ogahiy tomonidan tarjima etilganligi haqida tarjimaning muqaddimasida qisqacha gapirib o‘tiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumunki Ogahiy bir qancha tarixiy va adabiy asrlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ogahiy tomonidan o‘z devoniga yozgan muqaddimada keltirilgan ma’lumotlardan uning quyidagi asarlarini o‘zbek tiliga tarjima etilganligi aniqlangan “Ravzat us-safo”ning 2-daftarning 2-qismini, “Nodirnoma”, “Zafarnoma”, “Zubdat ul-hikoyat”, “Miftox ut-tolibin”, “Axloqi Muhsiniy”, Vosifiyning “Navodir ul-voqoiy”, “Nasihatnomai Kaykovus”, Jomiyning “Salomon va Absol”, Sa’diyning “Guliston, Jomiyning “Bahoriston”, Nosiriyning “Ravzat us-safoyi Nosiriy”, “Tazkirai Muqimxoniy”, “Taboqati Akbarshohiy”, Nizomiyning “Haft paykar”, Xisraviyning “Xasht behisht”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, Hiloliyning “Shoh va gado” asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Biz yuqorida Ogahiyning nafaqat tarixiy va badiiy asralarni yozishi, balki uni mohirona tarjima qilinganligining ham guvohi bo‘ldik. Shuni aytishimiz mumkinki Ogahiy nafaqat adabiyot bilan balki sarkardalik bilan, miroblik bilan shug‘ullanganligi haqida ma’motlar va manbaalar bizgacha yetib kelgan hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang: maqola Q.Murinov Xorazmda tarixnavislik “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashryoti” Toshkent—2002 asari asosida yozildi.
2. Muhammad Voris. Zubdat ul-hikoyot. Ogahiy tarjimasi. Mazkur qo‘lyozma fondi . Inv. № 1273/I 2<sup>a-b</sup> –varaq. Bu yerda muallif kimlarning asarlari asosida yozilganligi haqida batafsil gapiradi va ularning nomarini keltiradi. Bu asar bir muaqaddima va uch fasldan iborat. Yana qarang: Собрание восточных рукописей АН УКзбекистана. Т. I. Тошкент.С.44.
3. Kaykovus. Nasihatnoma. Ogahiy tarjimasi. Inv. № 1274/11.
4. Husayniy b. Ali Koshifiy. Ogahiy tarjimasi. Inv.№ 8446. № 1587.
5. Muhammad Mahdiy Astrobodiy. Tarixi jahonkushoniyi Nodirshoh. Ogahiy tarjimasi. Inv. № 6908, 1227/
6. Devoni Ogahiy. Mazku qo‘lyozma fondi . Inv. № 938.
7. Mirxond. Ravat us-safo. Ogahiy tarjimasi. Inv. № 7307.
8. Mirxond. Ravat us-safo. Ogahiy tarjimasi. Inv. №1812;. Собрание восточных рукописей. Т. I. оп. № 59. С.34.